



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOYIY-IQTISODIY TIZIMNI TRANSFORMATSIYALASHNING AMALIY HOLATI VA TENDENSIYALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18189402>

*(O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy tizim transformatsiyasining
bosqichlari va asosiy yo'nalishlari) Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*Besh tashabbus, klub va to'garaklar faoliyatini
muvofiqlashtirish markazi bosh mutaxassisi*

Nazarov G'ayrat Olim o'g'li

nazarovg717@gmail.com

+998 99 500 00 12

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
(Ilmiy rahbari) Mustaqil izlanuvchi (PhD)*

Kandaxarov Zafar Ishratovich

Orcid ID: 0009-0007-1863-0413

+998 93 001 99 95

ANNOTATSIYA. *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy tizim transformatsiyasining amaliy holati va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Transformatsiya jarayonining bosqichlari, asosiy yo'nalishlari va ularning davlat taraqqiyotiga ta'siri chuqur tahlil etilgan. Jumladan, bozor iqtisodiyotiga o'tish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, inson kapitalini rivojlantirish, hududiy infratuzilmalarni modernizatsiya qilish va yashil iqtisodiyotga o'tish kabi omillar asosiy e'tiborga olingan. Tadqiqot natijasida ijtimoiy-iqtisodiy tizimni yanada mukammallashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.*

KALIT SO'ZLAR: *ijtimoiy-iqtisodiy tizim, transformatsiya, bozor iqtisodiyoti, raqamli iqtisodiyot, innovatsiya, inson kapitali, davlat islohotlari, O'zbekiston, barqaror rivojlanish, hududiy taraqqiyot.*

KIRISH

Ijtimoiy-iqtisodiy tizim tushunchasi va uning davlat taraqqiyotidagi roli. Ijtimoiy-iqtisodiy tizim — bu jamiyatning iqtisodiy faoliyatini tashkil etish shakli, iqtisodiy resurslarni taqsimlash va ishlab chiqarish munosabatlari, shuningdek, ijtimoiy institutlar va davlat boshqaruvi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan murakkab

tuzilmadir. Bu tizim mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy adolat, aholi farovonligi va taraqqiyot ko'rsatkichlarini aniqlovchi asosiy omillardan biridir.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar tarixan turlicha shakllarda namoyon bo'lgan bo'lib, har bir davlat o'zining tarixiy, madaniy va siyosiy xususiyatlariga ko'ra



muayyan modelni shakllantirgan. Masalan, markazlashgan rejalashtirishga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar o'tgan asrda keng tarqalgan bo'lsa, bugungi globallashuv sharoitida bozor mexanizmlariga tayanuvchi, innovatsion va raqamli yechimlarga asoslangan tizimlar yetakchi o'ringa chiqmoqda.

Davlat taraqqiyoti bevosita ushbu tizimning samaradorligiga bog'liq. Agar iqtisodiy tizim zamon talablariga mos bo'lmasa, islohotlar sust kechsa yoki ijtimoiy ehtiyojlar hisobga olinmasa, bunday tizim jamiyatda ijtimoiy tengsizlik, ishsizlik va iqtisodiy inqirozga olib kelishi mumkin. Aksincha, uzluksiz yangilanib boruvchi, resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlovchi va innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi tizim davlatning barqaror o'sishiga, xalqaro maydondagi raqobatbardoshligiga va aholining turmush darajasining oshishiga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy-iqtisodiy tizimni tahlil qilish va uning transformatsiya yo'llarini belgilash har qanday mamlakat, jumladan, O'zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy taraqqiyot strategiyasi, iqtisodiy o'sish sur'atlari va ijtimoiy barqarorlik aynan ushbu tizimning qanchalik izchil va samarali faoliyat yuritayotganiga bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy tizim transformatsiyasining bosqichlari. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganidan so'nggi davri ijtimoiy-iqtisodiy tizimning tubdan

transformatsiya qilinishi bilan xarakterlanadi. Sovet davrida amal qilgan markazlashgan rejalashtirish va davlat mulkchiligiga asoslangan iqtisodiy tizim bozor munosabatlariga asoslangan, ochiq va raqobatbardosh iqtisodiyot modeliga o'zgartirilishi zarur edi. Bu jarayon o'z navbatida bir necha bosqichda amalga oshirildi:

Dastlabki bosqich (1991–2000-yillar): Bozorga yo'naltirilgan o'tish bosqichi: Ushbu bosqichda asosiy e'tibor iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash, moliyaviy barqarorlikni saqlash va bozor infratuzilmasini yaratishga qaratildi. Muhim islohotlar qatoriga quyidagilar kiradi:

Davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlari yo'lga qo'yildi;

Pul-kredit siyosati orqali inflyatsiyani jilovlashga harakat qilindi;

Ijtimoiy himoya tizimi saqlanib qolinganda, bozor elementlari joriy etildi;

Asosiy qonuniy asoslar, jumladan, "Xususiylashtirish to'g'risida"gi va "Bozor munosabatlarini rivojlantirish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Bu davrda ehtiyotkorlik bilan o'tish tamoyili asosida harakat qilindi, ijtimoiy beqarorlikka yo'l qo'ymaslik maqsad qilingan.

Ikkinchi bosqich (2001–2016-yillar): Barqaror rivojlanish va chuqurlashtirilgan islohotlar davri: Mazkur bosqichda iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan o'zgarishiga, sanoatlashtirish va eksportbop ishlab



chiqarishning kengayishiga alohida e'tibor qaratildi:

Bank-moliya tizimi isloh qilindi, milliy valyuta (so'm)ning barqarorligi ta'minlandi;

Ishlab chiqarish sanoatida modernizatsiya jarayonlari boshlandi, yangi ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi;

Qishloq xo'jaligida erkinlashtirish jarayonlari boshlangan bo'lsa-da, hali to'liq bozor munosabatlari joriy etilmagan edi.

Davlat tomonidan eksportga yo'naltirilgan strategiyalar amalga oshirila boshlandi. Shuningdek, bu bosqichda iqtisodiy o'sishning barqarorligi saqlanib, yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi sezilarli darajada oshdi.

Uchinchi bosqich (2017-yildan hozirgacha): Ochiq iqtisodiyotga o'tish va modernizatsiya Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida boshlangan yangi bosqich tub islohotlar bilan ajralib turadi:

Valyuta bozori erkinlashtirildi, milliy valyutaning konvertatsiyasi joriy qilindi;

Biznes muhiti sezilarli darajada liberallashtirildi, litsenziyalar soni kamaytirildi, xususiy sektor faol qo'llab-quvvatlanmoqda;

Raqamli iqtisodiyot, "Elektron hukumat", "My.gov.uz" kabi xizmatlar orqali iqtisodiy boshqaruv soddalashtirildi;

Ijtimoiy sohalar, xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik sohalarida modernizatsiya chuqurlashtirilmoqda;

Kambag'allikni qisqartirish, yoshlar siyosati va xotin-qizlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Bu bosqichda O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi reytinglari sezilarli darajada yaxshilandi, xorijiy investitsiyalar hajmi oshdi, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik kengaydi.

Hozirgi holat va mavjud tendensiyalar: O'zbekiston Respublikasi 2017-yildan boshlab yangi bosqichdagi iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy tizim modernizatsiyasiga qadam qo'ydi. Bu bosqichni "liberallashtirish, ochiq va innovatsion iqtisodiyotga asoslangan transformatsiya" deb ta'riflash mumkin. Transformatsiyaning hozirgi holatini tahlil qilish quyidagi yo'nalishlar asosida olib borilishi mumkin:

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi: So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Masalan, 2023-yil yakunlariga ko'ra yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sish sur'ati 6% atrofida bo'lib, bu Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir. Inflyatsiya darajasi asta-sekin pasayib, 2022-yilda 12–13% atrofida bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 9–10% oralig'ida saqlanmoqda. Bu esa monetar siyosat samaradorligining oshayotganini anglatadi.

Ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar: Ijtimoiy-iqtisodiy tizimning muhim



tarkibiy qismi bo'lgan ijtimoiy sohalarda ham jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda:

Bandlik va mehnat bozori: Rasmiy band bo'lganlar soni ortib bormoqda, mehnat migratsiyasidan ichki bozor tomon siljish kuzatilmoqda.

Kambag'allikni qisqartirish: Kambag'allik darajasini aniqlash va kamaytirishga qaratilgan strategiyalar joriy etildi, ijtimoiy yordamlar tizimi raqamlashtirilmoqda.

Sog'liqni saqlash va ta'lim: Davlat xarajatlarning salmoqli qismi ijtimoiy sohalarga yo'naltirilmoqda. 2022-yil holatiga ko'ra, sog'liqni saqlashga ajratilayotgan budjet xarajatlari YAIMning 3,8 foizini tashkil etgan.

Hududiy tafovutlar va hududlarni rivojlantirish: Transformatsiyaning amaliy holatida hududlar o'rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy tafovutlar muhim omil hisoblanadi. Rivojlangan Toshkent shahri va ayrim sanoat markazlari (Andijon, Farg'ona, Navoiy) bilan Qoraqalpog'iston, Surxondaryo yoki Jizzax viloyatlaridagi iqtisodiy faollik darajasi o'rtasida sezilarli tafovut mavjud. Shu bois hududiy infratuzilmani rivojlantirish, sanoat zonalari tashkil etish va tadbirkorlikni rag'batlantirish asosiy strategik yo'nalishga aylangan.

Davlat boshqaruvi va raqamli transformatsiya: So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimini soddalashtirish va samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida:

Davlat xizmatlarining 80% dan ortig'i elektron shaklga o'tkazilgan;

Soliq, bojxona va moliyaviy monitoring tizimlari raqamlashtirilgan;

"Open data" va "E-ijro" kabi platformalar orqali davlat faoliyatining ochiqligi va shaffofligi oshmoqda.

Xalqaro integratsiya va investitsion muhit: O'zbekiston Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, YeTTB va boshqa xalqaro institutlar bilan faol hamkorlik qilmoqda. "Doing Business" reytingida mamlakat 2020-yilda 69-o'ringda qayd etilgan bo'lib, so'nggi yillarda biznes muhitini yaxshilash, byurokraziyani qisqartirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar davom ettirilmoqda. 2023-yil holatiga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 10 milliard dollardan oshdi.

Ushbu holatlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-iqtisodiy tizimning transformatsiyasi O'zbekistonda nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki ijtimoiy adolat, zamonaviy boshqaruv va inson kapitalini rivojlantirish yo'nalishida ham samarali olib borilmoqda.

Transformatsiyaning asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya strategik, tizimli va bosqichma-bosqich yondashuvga asoslangan bo'lib, quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha olib borilmoqda:

Bozor iqtisodiyotiga to'liq o'tish: Transformatsiyaning markaziy yo'nalishi bu – davlatning iqtisodiy jarayonlardagi ishtirokini qisqartirish, xususi sektor rolini kuchaytirish va erkin bozor



tamoyillarini chuqurlashtirishdir. Bu borada:

Davlat korxonalarini xususiylashtirish va korporativ boshqaruv tizimini joriy qilish;

Soliq va bojxona tizimini liberallashtirish;

Valyuta siyosatini erkinlashtirish va konvertatsiya imkoniyatlarini kengaytirish kabi islohotlar amalga oshirilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalarni rivojlantirish. Zamonaviy iqtisodiy tizimlarning ajralmas qismi bo'lgan raqamli texnologiyalarni joriy etish O'zbekiston transformatsiyasining muhim omilidir. Bu yo'nalishda:

“Raqamli O'zbekiston – 2030” dasturi asosida davlat xizmatlari, moliyaviy operatsiyalar va ijtimoiy xizmatlar raqamlashtirilmoqda;

Raqamli savodxonlikni oshirish, IT-parklar va texnoparklar faoliyatini rivojlantirish, sun'iy intellekt, IoT (Internet of Things) kabi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmqda.

Inson kapitalini rivojlantirish. Ijtimoiy-iqtisodiy tizim transformatsiyasining asosiy negizi — bu inson omili hisoblanadi. Shuning uchun ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya kabi sohalarga alohida e'tibor qaratilmoqda:

Ta'lim tizimi bosqichma-bosqich xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda, oliy ta'lim muassasalari soni oshmoqda;

Sog'liqni saqlashda davlat-xususiy sheriklik asosida xizmatlar kengaymoqda;

Aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash uchun yagona ijtimoiy reyestr va yordam tizimi shakllantirilmoqda.

Hududiy rivojlanish va infratuzilma modernizatsiyasi. Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, ichki migratsiyani tartibga solish va yashash sharoitlarini yaxshilash transformatsiyaning muhim yo'nalishlaridandir:

“Har bir hudud – o'ziga xos loyihaga ega” tamoyili asosida investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda;

Avtomobil va temir yo'llar, energetika tarmoqlari, ichimlik suvi ta'minoti kabi infratuzilma obyektlari modernizatsiya qilinmoqda;

Mahalliy byudjetlar mustaqilligi kengaytirilmoqda, “fuqarolar budjeti” amaliyoti joriy etilmoqda.

Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot. Iqlim o'zgarishi va ekologik muammolar O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy tizimi uchun ham muhim chaqiriq hisoblanadi. Shu bois ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyot elementlari transformatsiya jarayoniga integratsiyalashmoqda:

“Yashil energiya” manbalarini (quyosh, shamol) kengaytirish bo'yicha milliy dasturlar amalga oshirilmoqda;

Atmosfera havosini monitoring qilish, chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslaridan oqilona foydalanish mexanizmlari yo'lga qo'yilmoqda;



Orolbo'yi hududlarini ekologik tiklash va ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha alohida strategiyalar qabul qilingan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tizim transformatsiyasi chuqur, izchil va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, uning muvaffaqiyati ko'p jihatdan siyosiy iroda, institutsional islohotlar samaradorligi, inson kapitali sifati va innovatsion rivojlanish darajasiga bog'liq. 2017-yildan boshlab boshlangan yangi islohotlar davri mamlakatni ochiq, bozor tamoyillariga asoslangan, ijtimoiy jihatdan adolatli tizim sari yo'naltirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillarga asoslanib quyidagilarni keltirish mumkin: O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy tizimining transformatsiyasi bosqichma-bosqich amalga oshmoqda, bunda davlat boshqaruvi liberallasuvi, xususiy sektor faoliyatining faollashuvi va raqamli iqtisodiyotning kengayishi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda;

Transformatsiya jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan birga, ijtimoiy himoya, ta'lim, sog'liqni saqlash va hududiy taraqqiyot sohalariga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda;

Davlatning strategik vazifasi – transformatsiya natijasida erishilayotgan iqtisodiy o'sishni inson hayoti sifatiga ijobiy ta'sir etadigan omillarga aylantirish, ya'ni ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va barqaror taraqqiyot

tamoyillarini amalda ta'minlashdan iborat;

Transformatsiya strategiyalarini hududlar bo'yicha diversifikatsiyalash: Har bir viloyatning iqtisodiy salohiyati, demografik tarkibi va geografik joylashuviga mos holda alohida strategiyalar ishlab chiqilishi lozim. Bu hududiy nomutanosibliklarni kamaytiradi va iqtisodiy faollikni yuksaltiradi.

Innovatsion faoliyatni tizimli qo'llab-quvvatlash: Texnoparklar, startaplar, ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali iqtisodiyotda bilim va texnologiyaga asoslangan tarmoqlar ulushini oshirish kerak.

Ijtimoiy adolat va samarali resurs taqsimotini ta'minlash: Davlat byudjeti xarajatlarini rejalashtirishda ijtimoiy zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini moliyalashtirishga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq.

Transformatsiyani monitoring qilish va baholash tizimini kuchaytirish: Islohotlar natijadorligini baholash uchun aniq indikatorlar, tizimli tahlil metodikasi va xalqaro ekspertiza asosida milliy baholash platformasi joriy etilishi lozim.

Umuman olganda, O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy tizimining transformatsiyasi zamonaviy bosqichda chuqur mazmun kasb etib, yangi davrda davlatning taraqqiy etgan, raqobatbardosh va ijtimoiy barqaror tizimga aylanishi uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirmoqda. Kelgusida bu jarayonni strategik yondashuv, ilmiy asoslangan



qarorlar va innovatsion yondashuvlar kasb etadi.
bilan mustahkamlash dolzarb ahamiyat

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomalari. — T.: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati, 2017–2023 yillar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PQ–60-son, 2022-yil 28-yanvar. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni 2022-yilda amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi. “O‘zbekiston iqtisodiyoti: raqamlar va tahlillar”, yillik statistik sharhlar, 2021–2023 yillar.
4. Давлат статистика қўмитаси маълумотлари: <https://stat.uz>
5. Xo‘jayev Sh.R. “O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishning nazariy asoslari”. – T.: Iqtisodiyot, 2021.
6. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – T.: Ma’naviyat, 2008.
7. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. “Makroiqtisodiyot”. – T.: Iqtisodiyot, 2020.
8. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2020-yil.
9. World Bank. Uzbekistan Economic Update. Washington, DC: World Bank Group, 2023. www.worldbank.org
10. UNDP. Human Development Report – Uzbekistan 2023. United Nations Development Programme, Tashkent.